

SHARQSHUNOSILK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

3

2025

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 3, 2025



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abduhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
I. Xaydarov	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Karimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyov	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, D. Sodiqova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

D.Sodiqova Bin Sin she'rlarida intertekstuallik.....	5
B.Ibragimov Elbek hikoyalarining o'ziga xos xususiyatlari	16

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

X Alimova., R Sirojiddinova. Hozirgi dariy tili iqtisodiy terminologiyasida forscha leksik interferensiyalar	26
S.Mustafayeva O'rta xitoy tilida murojaat so'zlarning lingvopragmatik xususiyatlari...	33
Sh. Shamsiyeva Androsentrizmning til sathlarida voqelanishi.....	42
M.Jumaniyazov "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarida aslga o'xshash tushum kelishigidagi ismlarning tahlili	55
A. Diniqulov Arab maqol-matallarida fe'llar lingvomadaniy omil sifatida	67

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

U.Abdullayev Amir Temur davlati xalqaro munosabatlari tarixini tadqiq etishning konseptual asoslari.....	78
O.Mahmudov Musulmon sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	87
A.Egamberdiyev Davriy matbuot sahifalarida Sharqiy Turkistondagi siyosiy voqealarga doir masalalarning yoritilishi (XIX asr oxirlari)	98
L.Elimov G'arb va Sharq mualliflari asarlarida Amir Temur davlatining vujudga kelishi haqida	111

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

A. Eshankulov Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlararo aloqalarini rivojlantirish istiqbollari	123
D.Eshankulova Islom hamkorlik tashkiloti jahon siyosatida diniy-sivilizatsion omil sifatida.....	135



O‘.Qalandarov Islom inqilobi va Eron tashqi siyosatining yangi paradigmalarining shakllanishi.....	146
Sh.Salimov Koreya Respublikasi siyosiy partiyalarini faollashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli	156
N.No‘monjonova Xitoyning global muammolarni hal qilish bo‘yicha tashqi siyosat strategiyasi: konseptual yondashuvlar va amaliy tahlil	168
N.Meliyev Markaziy Osiyo mintaqasida transport tizimini rivojlantirish imkoniyatlari	176
D.Botirov Siyosiy partiyalar faoliyatidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili	190
U.Shukurillayev The Chinese Factor in Ensuring Energy Security of Central Asian States.....	200
O. G‘aybullayev Markaziy Osiyo energetika tizimi: global raqobat maydonida.....	214



Keyinchalik patriarxal jamiyatdagi an'analar "islomiy" deb talqin qilina boshlangan.

“KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E'RĀB” ASARIDA ASLGA O'XSHASH TUSHUM KELISHIGIDAGI ISMLARNING TAHLILI

Jumaniyazov Mansur Davletbayev

TDSHU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilida ismlarning nasb holati, ya'ni tushum kelishigida kelishi va ularning xususiyatlari Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asari asosida o'rganiladi. Xususan, asarda keltirilgan hol va uning turlari, xususiyatlari, aniqlashtiruvchi, uning gapdagi vazifalari tadqiq etiladi. Shuningdek, ismlarning tushum va qaratqich kelishigida berilishini taqazo etuvchi istisno yuklamalari va ularning moslashuv qoidalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Hol, ravish holi, birlikdagi hol, hol ergash gapli qo'shma gap, aniqlashtiruvchi, cheklovchi, istisnolik va istisno yuklamalari.

Abstract: This article examines the accusative case of nouns in the Arabic language and its characteristics based on Ziyoviddin Makkiy Khorezmi's work "Kifayatu-n-Nahw fi 'Ilm al-I'rāb". Specifically, it explores the states and their types, properties, explanatory structures, and their syntactic roles in a sentence as presented in the work. The study also analyzes exceptional particles that require the use of nouns in the accusative and genitive cases, along with their agreement rules.

Keywords: Circumstantial accusative (*ḥāl*), adverbial accusative, circumstantial accusative in the singular, complex sentence with a circumstantial subordinate clause, specifier/accusative of specification (*tamyīz*), restrictive, exception and exceptive particles.

Аннотация: В данной статье исследуется винительный падеж имён в арабском языке и его особенности на основе труда Зиявиддина Макки Хорезми «Кифаяту-н-нахв фи ильми-ль-ираб». В частности, рассматриваются состояния, их виды и характеристики, а также пояснительные конструкции и их синтаксическая функция в предложении. Кроме того, анализируются исключительные частицы, требующие употребления имён в винительном и родительном падежах, и правила их согласования.

Ключевые слова: обстоятельственный винительный падеж (*ḥāl*), наречный винительный падеж, одиночный обстоятельственный оборот, сложноподчинённое предложение с придаточным обстоятельства, уточняющий член (*tamyīz*), ограничение, исключение и исключаяющие частицы.

KIRISH. Arab tili – murakkab grammatik tizimga ega bo'lgan, dunyodagi eng boy va qadimiy tillardan biri hisoblanadi. Bu tildagi ifoda imkoniyatlarining kengligi, avvalo, uning sarf va nahv qoidalariga qat'iy rioya qilinishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, arab tili grammatikasining muhim bo'limlaridan biri hisoblangan nahv (sintaksis) ilmida ismlarning e'robi, ya'ni ularning jumlada tutgan o'rniga qarab o'zgarishi alohida tadqiqotlarni talab qiladi.



Mazkur maqolada aynan ismlarning nasb holatida, ya'ni tushum kelishigida kelishi va bu holatdagi o'ziga xos xususiyatlar Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning mashhur nahviy asari – "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asosida tahlil etiladi. Asarda bayon etilgan nazariy asoslar, nasb holatining turlari, uning grammatik vazifalari hamda aniqlashtiruvchi (tamiyz), masdar, zamon va makon hollari kabi shakllarda ishlatilishi ilmiy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, tushum va qaratqich kelishigida berilishini talab qiluvchi istisno yuklamalar va ularning moslashuv qoidalari ham tahlil markazida bo'ladi.

MAQSAD VA VAZIFALAR

Maqolaning asosiy maqsadi Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarida to'ldiruvchilardan boshqa bo'laklar, ya'ni aslga o'xshash tushum kelishigidagi ismlarning ifodalanishini tadqiq qilishdan iborat. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarini lingvistik tahlil asosida o'rganish, ayniqsa undagi nasb holatida kelgan ismlarni aniqlash va tasniflash;
- Aslga o'xshash (yaqin ma'nodagi) tushum kelishigidagi shakllarni aniqlash, ularning qo'llanish kontekstlarini ko'rsatish va grammatik asoslarini tushuntirish;
- Mazkur ismlar bilan bog'liq istisno holatlar va ularni yuzaga keltiruvchi yuklamalar (harflar)ning rolini tahlil qilish;
- Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning tilshunoslikdagi yondashuvini ko'rsatish, uning grammatik tafakkuridagi o'ziga xos jihatlarni yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarida bu mavzu الحال – holat holi bilan boshlangan. Arab tili grammatikasida "aslga o'xshash tushum kelishigidagi ismlar" mavzusida yoritilayotgan الحال ona tilimizdagi holat yoki ravish holiga to'g'ri keladi.

Xorazmiy الحال ga quyidagicha ta'rif beradi: الحال: هي بيان هيئة الفاعل في حال وقوع الفعل منها؛ و المفعول به في حال وقوع الفعل به؛ "al-hal" ega va to'ldiruvchining fe'ldagi ish-harakatni amalga oshirish davomidagi ularning holatini bayon qiladi¹.

Sakkokiy esa "al-hal"ga qisqacharoq izoh beradi الحال هي بيان كيفية وقوع الفعل – Hol ish-harakatning qanday amalga oshganini bayon qiladi². Mashhur nahvshunos Anbariy holga undan ham qisqaroq ta'rifni bergan: الحال هيئة الفاعل و المفعول – Hol ega va to'ldiruvchining ko'rinishi.³ "Hidayatu-n-Nahv" kitobida esa mazkur tushunchani

1. Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 56-b.

2. الإمام أبو يعقوب يوسف بن أبي بكر بن محمد المعروف بالسكاكي، علق على الكتاب نعيم زرزور، دار الكتب العلمية، بيروت- لبنان، 1987م، ص 621. صحيفة- 92

3 26-bet هبة ولد محمد ربيعة صلواتي، المصطلحات النحوية عند زمخشري، السنة الجامعية 2013-2014. صفحة 40



beradi. Hol ega va to'ldiruvchi yoki har ikkalasining shaklini bayon qilishiga dalolat qiladi¹.

Majburiyati bayon etilgan holatda o'xshash ta'rifni beradi. Uning kelishi ega va to'ldiruvchi shaklining bayoni uchun².

Ko'rib turganimizdek, holga beshta olim turli xil ta'riflarni bergan. Sakkokiylar bilan Xorazmiyning ta'riflari bir-biriga yaqin. Chunki ikkalasi ham "ish-harakatning amalga oshishi" birikmasini bir xil ishlatgan. Lekin Sakkokiylar ega va to'ldiruvchining iborasini qo'llamagan. Qolgan ta'riflar juda qisqa ta'riflar bo'lib, o'quvchi misollarga o'tib, bu qoidalarining ma'nosini tushunishi mumkin. Ammo Xorazmiyning ta'rifi keng qamrovli bo'lib, qoidani o'qib o'rganuvchi hol tushunchasini anglatadi. Bu esa ushbu manbaning talabalar uchun nihoyatda ahamiyatli ekanini anglatadi.

Maqolada tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alloma holga quyidagi misollarni keltiradi: *Zayd ulovli holda keldi.* – جاء زيد راكبا. Zaydning kelish ish-harakatidagi holatini bayon qilyapti. *“ulovli holda”* so'zi Zaydning kelish ish-harakatidagi holatini bayon qilyapti. *“yalang'och holda kaltakladim.”* – مجردا من ثيابه. Zaydni yalang'och holda kaltakladim. *“yalang'och holda”* so'zi hol bo'lib kaltak yeganning holatini bayon qilyapti.

Keyingi faslda muallif hol jumlar tarkibida qanday holatda bo'lishini bayon qiladi. Hol *“noaniq”* holatda bo'lishi kerak. Masalan; *Zayd ulovli keldi.* Bu jumladagi holni *“noaniq”* holatda berish joiz emas.

Holning egasi aniq holatda bo'ladi. *Noma'lum kishi mening oldimga ulovli keldi.* Jumladagi holning egasi bo'lgan *“noaniq”* kelishi joiz emas. Agar u holdan keyin kelsa joiz bo'ladi. Alloma shartlarni bayon qilib misollar keltirishda to'g'ri va noto'g'ri, joiz va nojoiz shakllarini ham keltirib o'tadi. Asarni yozishdagi bu uslub boshqa nahv kitoblarida kam uchraydigan holatlardan bo'lib, xato va nojoiz bo'lgan misollar aksar kitoblarda keltirilmaydi.

Masalan, Ibn Hishom Ansoriy *“Shuzuz-z-Zahab”*ning sharhida shunday deydi. *“Holning haqqi u noaniq holatda va holning egasi aniq holda bo'lishi kerak”*³. Ibn Hishom ta'rifdan keyin unga misol keltirmaydi, balki umumiy mavzu ichida bayon qiladi.

Xorazmiy hol egasi holdan keyin kelsa, noaniq holda kelishi mumkin, deydi. Ustozi Zamaxshariy esa *“Hol egasining noaniq holatda kelishi qabihdir. Lekin hol undan oldinga o'tsa joiz bo'ladi deydi”*.

¹ 53-bet. جماعة من العلماء البارعين. هداية النحو. مكتبة البشري بكراتش باكستان. 2011م. ص 160.

² أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدادة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 79-565.

³ الإمام جمال الدين أبي محمد عبد الله بن يوسف المعروف بابن هشام النحوي، شرح شذوذ الذهب في معرفة كلام العرب، دار 41-bet. 2001م، ص 254.



Zamaxshariy va Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy hatto, Zamaxshariyning yana bir shogirdi Muarziy ham bu masalada muvofiq kelib, ustoz-shogirdlar bitta qoidaning misoliga quyidagi she'ni keltiradi.

لعزة موحشا طلل قديم
عفاها كل أسحم مستديم

*Izzada (ayol ismi) ship-shiydon holdagi eski uyining xarobasi bor
Kuchli qora bulutli yomg'ir uni vayron qilgan.^{1,2}*

She'r qoidaga dalil qilib keltirilar ekan, jumla tarkibida qaysi so'z hol bo'lib kelganiga izoh berilmagan. Sig'noqiy bu she'rdagi grammatik masalalar borasidagi nahvshunoslarning qarashlarini bayon qilib, موحشا so'zining hol ekanligini va طلل so'zi hol egasi ekanligini ta'kidlab, hol egasi holdan keyin kelganligi sababli noaniq holda ekanligini ham tushuntiradi³. Uchta olimning qoidalarni yoritishdagi uslubiga e'tibor bersak, ba'zi masalalarda o'sha davrdagi qarashlar bir-biriga juda yaqin ekanini ko'ramiz. Undan tashqari, Xorazmiy "Hol" mavzusida Zamaxshariy bayon qilgan الحال المؤكدة "ta'kidlovchi" holni zikr qilmaganini va Mutarziy "Misbah" kitobida holni ikkita olimdan farqli ravishda "umumiy" tushum kelishikdagi ism qatoriga kiritishini hisobga olsak, ulardagi o'zgachalikni ham ko'rish mumkin⁴.

الحال المؤكدة "ta'kidlovchi" hol qoidasini muallif yoritmagan. Bu masalada olimlar o'rtasida uning fe'liy va ismiy jumladan keyin kelishi xususida turli xil fikrlar bo'lgani sababli bu mavzuni yoritmagan bo'lishi mumkin. Olimning uslubi o'rtamiyonalikdan chiqib ketmaslik uchun bu nazariy ma'lumotlarni keltirmagan bo'lishi ham mumkin.

Alloma bitta faslga ismiy yoki fe'liy jumlaning hol bo'lib kelishi mavzusiga bag'ishlaydi. الجملة تقع حالا اسمية كانت أو فعلية "fe'liy gap yoki ot kesimli gap hol bo'lib keladi"⁵. Masalan: زائد و هو راكب – *Zayd u ulovli holda oldimga keldi.* لقيت عمرا و هو راكب – *Umarni u tik turgan holatda uchratdim.* Bu ikkita misolda ot kesimli gap هو قائم va راكب bo'lib, murakkab jumlada hol vazifasida kelyapti.

زائد يسرع – *Zayd u shoshilib keldi.* Bu jumlada يسرع kelasi zamon fe'li hol vazifasida kelyapti. Alloma juda kam uchraydigan, lekin muhim bo'lgan yana bir qoidani keltirib o'tadi. O'tgan zamon fe'li قد harfi bilan birga kelib holni ifoda qiladi. Masalan: رأيت قد ركب فرسه – *Men uni otiga mingan holatda ko'rdim.*

¹ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 56-b.

² أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 565 71-bet

³ الإمام حسين بن علي السغناقي، الموصول في شرح المفصل، تحقيق أحمد حسن، جامعة أم القرى، مكة المكرمة، 1998م، صفحة 1338 541-bet.

⁴ أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة. ص 159. 65-bet

⁵ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 58-b.



Holning yana bir muhim, o'quvchilar farqini ajrata olishi kerak bo'lgan turlaridan biri masdar ko'rinishida kelishidir. Chunki bu hol "Maful mutloq"ga juda yaqin bo'lib, ba'zida uning ma'nosiga o'xshab qoladi. يقع المصدر حالا "ish-harakatni bildiruvchi so'z hol vazifasida keladi"¹. Masalan; قتلته صبرا – *Uni qamash holatida o'ldirdim*, لقيته فجأة و عيانا

– *Men uni to'satdan ochiq-oydin uchratdim*. Bu jummalarda صبرا masdari مصبورا ko'rinishida فجأة va عيانا so'zlari معايينا va مفاجئا shaklida bo'lib hol ma'nosini ifoda qilyapti.

Muallif "Hol" mavzusini holning egasiz kelishi fasli bilan yakunlaydi. قد ينصب "Yashiringan omil sababidan hol tushum kelishigida keladi"². Masalan: Haj ibodatini ado qilib kelgan kishiga مبرورا ya'ni, قدمت مبرورا – *Yaxshi holda kelding!* deyishning kabi.

Aslga o'xshash tushum kelishigidagi ismlardan yana biri "cheklov" bo'lib, bu grammatik kategoriya faqat arab tilida ishlatilib, boshqa tillarda uchramaydi.

Cheklovni o'zbek nahvshunoslari quyidagicha izohlaydilar. Gapda cheklov bo'lib kelgan so'z gapning kesimi ifodalagan ma'noning obyektini yanada konkretlashtirib, aniqlab, chegaralab keladi³.

Asarda التمييز "cheklov"ga quyidagicha ta'rif beriladi. التمييز هو رفع الإبهام عما يحتمل – وجوها لبيان المقصود منها، ويجيء ذلك بعد تمام الكلام و بعد تمام الاسم "cheklov maqsadni bayon qilish uchun jumlada boshqa jihatlarining ehtimoli bor bo'lgan narsadan noaniqlikni ketkazadi. U ismdan keyin jumlaning oxirida keladi"⁴. Masalan; طاب زيد نفسا – *Zayd nafs jifatdan yaxshi*. Alloma bu qoidani quyidagicha tushuntiradi: طاب طاب زيد jumlasida طاب so'zi زيد ga bog'lanishi boshqa jihatlar borligining ehtimolini keltirdi. Agar uning oxiriga نفسا so'zini qo'shsang, uni bayon qilgan bo'lasan. امتلأ الإناء ماء – *Idish suv jihatdan to'ldi*.

Muallif "cheklov"ning turli xil shakllarda kelishiga ham misollar keltiradi.

Agar cheklangan so'z tanvinga tugagan bo'lsa; عندى راقود خلا و رطل زينا – *Menda bir ko'za sirka bor va menda bir ratl yog' bor*". Jumlada خلا sirka زينا so'zlari "cheklov" bo'lib, ismdagi noaniqlikni ketkazayapti. Agar cheklangan so'z ikkilikdagi ism bo'lsa; منوان سمنا – *Menda ikki man yog' bor*, jumlada منوان so'zi ikkilikda kelib, سمنا so'zi "cheklov" bo'lib, uni aniqlashtiryapti. Agar ism ko'plikda bo'lsa; عشرون درهما – *Menda yigirma dirham bor*. Agar cheklangan so'z muzof bo'lsa; ملؤ الإناء عسلا – *Menda idish to'la asal bor*.

درهما عشرون cheklangan so'zdan oldinga o'tishi joiz bo'lmaydi. Masalan: درهما "dirham yigirma" deb, "cheklov" bo'lgan درهما so'zini cheklangan so'zdan oldinga chiqarish mumkin emas. Shu o'rinda o'tgan mavzularda takrorlanmagan, alloma buni

¹ O'sha asar qo'lyozmasi. 59-a.

² O'sha asar qo'lyozmasi. 60-b.

³ N.Ibrohimov va M.Yusupov. Arab tili grammatikasi. – Namangan.: Ibrat, 2009, 254-b.

⁴ O'sha asar qo'lyozmasi 61-a.



o‘z asarida ko‘p qo‘llamagan bir uslubga duch kelinadi. Ya’ni, “cheklov”ning boshqa to‘ldiruvchilar kabi egadan va fe‘ldan oldin kela olmaslik masalasida olim o‘z qarashini emas, Sibavayhning talqinini keltiradi. إذا انتصب المميز عن الفعل لأن المميز فاعل في المعنى و لا يجوز تقديم الفاعل على الفعل ma’nosida bo‘ladi va foilning fe‘ldan oldinga o‘tishi joiz bo‘lmaydi”. Lekin Mubarrad cheklov boshqa tushum kelishigidagi ismlarga qiyosan joiz, deb quyidagi tavil vaznidagi she’ni keltiradi.

أتهجر ليلى بالفراق حبيبها
و ما كان نفسا بالفراق تطيب

*Laylo ajralish bilan o‘z sevgilisini tashlab ketadimi
U firoqda nafs jihatidan yaxshi bo‘lmagan holda¹.*

Arab tili grammatikasida ismlarning tushum kelishigida kelishini talab qiladigan shunday yuklamalar borki, ular istisno yuklamalari deb ataladi. Bu yuklamalardan keyin kelgan so‘z istisnolikni ifoda qilib, tushum kelishigida bo‘ladi. Istisnolikni o‘zbek tilida aniqroq tushunish uchun misol keltiramiz: “Bog‘imizda gilosdan boshqa hamma mevalar bor”. Bu misoldagi “gilosdan boshqa” birikmasi istisnolikni bildiradi.

Arabshunos olim Malika Nosirova “Gap sintaksisi” kitobida istisnolikni ifoda qilib kelayotgan bo‘lak ikki xil ma’noda kelishini ta’kidlaydi. 1. Agar gapda istisno va istisnolikni ifoda qiluvchi bo‘lak hamda istisno qilingan so‘z bo‘lsa haqiqiy istisnoni anglatadi. لم أرتكب ذنباً سوى أننى نظرت إلى هذه الجارية. – *Bu cho‘ri qizga nazar solishdan o‘zga gunoh qilmadim*. 2. Agar gap inkor yuklamasi bilan boshlangan bo‘lsa, jumlada undan istisno bo‘lgan so‘z bo‘lmasa, istisno qilinayotgan bo‘lak chegaralanganlikni ifoda qilib, “faqat” deb tarjima qilinadi. لا أطلب منك إلا أن ترافقتى. – *Sendan faqat menga hamrohlik qilishingni so‘rayman*².

Alloma Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy o‘z asarida istisno mavzusini yoritishda odatdagidek birinchi unga ta’rif berishdan boshlaydi. الاستثناء: هو إخراج الشيء – من حكم دخل فيه هو و غيره – “Istisno biror narsani u va undan boshqa unga kiritilgan tushunchadan chiqarish”³. جاءنى القوم إلا زيدا. – *Mening oldimga Zayddan boshqa barcha qavm keldi*. Jumladagi Zayd so‘zi kelish ish-harakati tushunchasidan chiqarildi. Agar istisno yuklamasi bo‘lmaganda, u o‘sha tushunchaga qo‘shilardi. Istisno morfologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ikki turga bo‘linadi; 1. الموجب. “Bo‘lishli”. Bu istisnoviy

¹ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo‘lyozma. 63-b.

² A.Qahhorov, M.Nosirova. Gap sintaksisi. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot birlashmasi, 2013.156- b.

³ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo‘lyozma. 64-a.



(istisnoli) gap inkor, ta'qiqlash ma'nosida bo'lmasligi va unda so'roq olmoshlari ishtirok qilmasligi kerak. Ya'ni tasdiq ma'nosida bo'ladi. 2. غير الموجب "bo'lishsiz". Bu bo'lishsiz istisnoviy gapda quyidagi uchta holat mavjud bo'ladi. Ya'ni, gap inkor yoki so'roq gap ko'rinishida bo'ladi. Agar gap bo'lishli bo'lsa, إلا istisno yuklamasidan keyingi ism tushum kelishigida bo'ladi. خرج أصحابك إلا عبد الله – *Abdullohdan boshqa do'stlaring chiqdi*.

Agar gap bo'lishsiz bo'lsa istisnolikni ifoda qiluvchining kelishigi ikki xil bo'ladi. 1. إلا istisno yuklamasidan keyingi ism tushum kelishigida bo'ladi. ما جاءني أحد إلا – *Menga Zayddan boshqa hech kim kelmadi*. Gapda زيدا so'zi istisno yuklamasidan keyin tushum kelishigida turibdi.

2. Istisnolikni ifoda qilayotgan bo'lakni إلا istisno yuklamasidan oldingi ismdan izohlovchi qilib, har uch kelishikda unga moslashadi. زيدا – *Menga Zayddan boshqa hech kim kelmadi*. زيدا so'zi so'zidan izohlovchi bo'lib bosh kelishikda kelgan. ما رأيت أحدا إلا زيدا – *Zayddan boshqa hech kimni ko'rmadim*. زيدا so'zi so'zidan izohlovchi bo'lib, tushum kelishigida kelyapti.

زيد dan بأحد so'zi زيدا – *Zayddan boshqa bironing yonidan o'tmadim*. زيدا so'zi istisno bilan emas, izohlovchi bo'lib, qaratqich kelishigida kelyapti.

Agar istisno egasi birlikdagi ot bo'lmagan jumladan keyin kelsa, إلا istisno yuklamasidan keyingi ism fe'l boshqaradigan bo'lakka aylanadi. ما جاءني إلا زيد . – *Menga Zayddan boshqa kelmadi*. زيدا so'zi زيدا'siriz fe'l sababidan bosh kelishikda kelgan. ما رأيت إلا زيدا – *Zayddan boshqani ko'rmadim*. إلا istisno yuklamasidan keyingi زيدا so'zi fe'l ta'sirida tushum kelishigida kelyapti.

زيد – *Zayddan boshqaning yonidan o'tmadim*. زيدا so'zi istisno bilan emas, old ko'makchi sababidan qaratqich kelishigida kelyapti.

– *Agar istisnoni ifoda qilayotgan bo'lak undan istisno qilingan bo'lakdan oldiga o'tsa faqat tushum kelishigida bo'ladi*¹. ما مررت إلا زيدا بأحمد – *Mening oldimga faqat akang Ahmad keldi*, زيدا بأحمد – *Men faqat Zayddan boshqa Ahmadni yonidan o'tdim*.

Bu qoidani dalillash uchun olim tavil vaznida yozilgan Hoshimiylarning shoiri Abul Musatxilga tegishli she'ni keltiradi.

ما لي إلا آل أحمد شيعه
ما لي إلا مشعب الحق مشعب

*Ahmadning oilasidan boshqa men uchun tarafdor qolmadi
Haq yolidan boshqa men uchun yo'l qolmadi.*

Alloma she'ni keltirib, bu misolda avvalgi qoidalar kabi izohlovchi qilib kelishikda moslashtira olmasligimizni, chunki izohlovchi izohlanmishdan oldinga o'tmasligini

¹ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 65-b.



ta'kidlaydi. Ammo istisno ma'nodan uzilgan "munqote" bo'lsa, tushum kelishigida o'qish ixtiyor qilingan. Istisnoning o'rin o'zgarishi masalasida olim o'zining qat'iy tushum kelishigida bo'ladi, degan qarashida turishi ba'zi masalalarda uning o'z fikrlariga suyanishini bildiradi. Masalan: Shayx Rizo shunday deydi: Agar bo'lishli gapda istisno undan istisno qilinayotgan bo'lakdan oldinga chiqsa, majburan tushum kelishigida keladi. Agar bo'lishsiz gapda bo'lsa, izohlovchi qilib bo'lmaydi. Chunki izohlovchi izohlanmishdan keyin kelmaydi¹. Bu masalada ikki olimning fikrlari bir xil bo'lib, tushum kelishigida bo'ladi, izohlovchi bo'lmaydi deb, fikr bildirishgan.

Ma'nodan uzilgan istisnoda istisnoni ifoda qilyotgan bo'lak undan istisno qilinayotgan ismning turdoshi bo'lmaydi. Masalan: ما جاعنى أحد إلا خسارا - *Menga zarardan boshqa hech kim kelmadi*². Bu jumlada أحد "hech kim", خسارا "zarar" so'zlari turdosh ot emas. Shuning uchun istisno yuklamasidan keyingi ism tushum kelishigida turibdi. Olim buni ham izohlovchi qilib bosh kelishikda o'qisa bo'ladi, deydiganlar ham bor, deydi. Ammo kimlar bu fikrda ekanini zikr qilmaydi. "Maoniy-Nahv" kitobida bu masalada quyidagi ma'lumotlarni beradi. "Ahli hijozliklar ma'nodan uzilgan "munqote" istisnoda tushum kelishigida o'qilishini ta'kidlab, quyidagi misolni keltiradi. ما له عليه سلطان إلا التكلف - *Unda birovning ustidan mas'uliyatdan boshqa sultonlik yo'q*. Ammo Banu tamimliklar - التكلف سلطانه - *Mas'uliyat uning sultonligidir*" ma'nosida qilib, bosh kelishikda o'qiydi. لا أحد فيها إلا حمار - *U yerda eshakdan boshqa hech kim yo'q*, misolida أحد "hech kim" so'zi ta'kid uchun kelgan bo'lib, u yerda odam yo'q ekanligini bilish uchun keltirilgan. Shuning uchun izohlovchi qilib bosh kelishikda o'qisa bo'ladi, deydi. Sibavayh ham hijozliklar bilan bir fikrda bo'lib, tushum kelishigida o'qish kerak, chunki istisnodan oldingi ism undan keyingi ismning turidan emas, deydi³.

Agar istisnolikni ifoda qilayotgan bo'lak ikkita bo'lsa ikkinchisini tushum kelishigida o'qiysan. Masalan: ما أكل أحمد إلا الخبز إلا زيدا - *Ahmad nonni yedi, biroq Zayd yemadi*. Jumlada inkor yuklamasidan keyin istisnoning ta'siri yo'qolib, gap bo'lishli bo'lib qoldi. Bo'lishli gapda esa istisnolikni ifoda qiladigan bo'lak tushum kelishigida bo'ladi⁴.

قد أوقعوا الفعل موقع الاسم المستثنى - *Ba'zida ular fe'lni istisnolikni ifoda qilayotgan bo'lak o'rinda qo'yiladi*". Masalan: نشدتك بالله إلا فعلت كذا - *Alloh nomi bilan senga yolvordim, sen faqat shuni qilding*. Gapning asl ko'rinishi va ma'nosi quyidagicha. ما أطلب منك إلا . - *Sendan faqat shuni qilishingni so'radim*. Olim shu o'rinda Ibn Abbosning misolini ham keltiradi. بالأيواء و النصر منكم إلا جلستم. - *Sizlar yordam va boshpana*

¹ محمد بن الحسن الإستراباذي السمنائي النجفي. شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية 1996م. ص 726-727. 1222.

² Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 66-a.

³ الدكتور فاضل صالح السامرائي، معاني النحو، الجزء الثاني، دار ابن كثير ببيروت، 2020م، ص 424.

⁴ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 66-b.



berishingiz bilan sizlar faqat o'tirdinglar. Gapning asl ko'rinishi va ma'nosi: بحق الإيواء. *Yordam va boshpana berishingiz bilan haqli ravishda sizlardan faqat o'tirishingizni so'rayapman*¹.

Bu faslda olimning kitobni yozishdagi yana bir o'zgacha uslubining guvohi bo'lyapmiz. Olim qoidalarini dalillashda hatto, sahobalarning so'zlarini ham keltirgan. Bu faslda esa hech qanday bahsli mavzu bo'lmasa-da, sahoba Ibn Abbosning gapini keltiryapti.

Olim keyingi faslni istisno harflaridan biri bo'lgan غـ harfiga bag'ishlaydi.

Aslida غـ turlanishda o'zidan oldingi so'zga sifat bo'ladi". Masalan: جاءني رجل غير زيد - *Zayddan boshqa kishi keldi*, مررت برجل غير زيد - *Zayddan boshqa kishini ko'rdim*. Uchta misolda ham sifatda yoki shaxsiyatda ajralib turish ma'nosi bo'lib, oldingi ism bilan moslashib kelyapti. Bundan tashqari غـ harfi harfining vazifasida keladi. Masalan: جاءني القوم غير زيد - *Zayddan boshqa qavm keldi*. غـ harfi tushum kelishigida o'qiladi. Chunki u غـ harfining vazifasida va bo'lishli gapda kelyapti.

Olim غـ harfining turlanishdagi o'zgarishini bir oyat misolida ko'rsatib beradi. «Mo'minlardan o'zlari beshikast bo'lib turib o'tirib olgan kishilar barobar bo'lmaydi» [Niso. 95]. Bu oyat uch xil kelishikda o'qilishi mumkin. 1. Bosh kelishikda; غـ sifat vazifasida kelib القاعدون so'zi bilan moslashadi va bosh kelishikda o'qiladi. 2. Qaratqich kelishigida; غـ harfi المؤمنين so'zining sifati bo'lib, qaratqich kelishigida o'qiladi. 3. Bosh kelishikda: bunda غـ harfi istisno vazifasida kelib tushum kelishigida o'qiladi.

Zamaxshariy o'zining "Tafsir-Kashshof" tafsirida bu oyatning grammatik xususiyatini yoritib, غـ harfini uch kelishikda o'qish mumkinligini ta'kidlaydi². Xorazimiydan farqli ravishda, غـ harfini istisno hamda hol ma'nosida qilib, tushum kelishigida o'qish ham joiz deydi. Xorazmiy esa, hol bo'lishi haqida to'xtalmagan.

Yuklamasi istisno bo'lib kelgani kabi غـ harfi ma'nosida sifat bo'lib kelishi mumkin. Olim bunga misol sifatida oddiy jumlar keltirmasdan, to'g'ri oyatdan misol keltiradi. «Agar (osmonlar va yerda) Allohdan o'zga "iloh"lar bo'lganida, har ikkisi buzilib ketar edi» [Anbiyo, 22].

Oyatda Alloh lafzidan oldin kelgan غـ istisno yuklamasi غـ harfi ma'nosida sifat bo'lib kelgan. Aslida غـ shaklidagi ma'noda bo'lgan.

Oyatga qo'shimcha ravishda qoidani mustahkamlash uchun she'riy baytdan ham misol keltirilgan. Johiliyat davri shoirlaridan bo'lgan, Labidning quyidagi "tavil" vaznidagi she'ri mazkur qoidaning dalili o'laroq taqdim qilingan.

¹ O'sha asar qo'lyozmasi 67-a.

² العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشف عن حقائق غوامض 132-b. التنزيل و عيون الأقاويل في وجوه التأويل، الجزء الثاني، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 626.



وكل أخ مفارقة أخوه
لعمر أببك إلا الفرقدان

*Har bir birodar birodaridan ajralguvchidir,
Otangning haqqi-hurmati farqadondan boshqa.*

Xorazimiy she'ning sharhida *إلا* istisno yuklamasi *غير* harfi ma'nosida كل أخ birikmasining sifati vazifasida kelganini ta'kidlaydi. Ammo bu baytdagi *إلا* istisno yuklamasi *غير* harfi ma'nosida sifat bo'lib kelishi masalasida ham olimlar o'rtasida turli xil fikrlar bor. Masalan: kufaliklar bu baytda *إلا* istisno yuklamasi teng bo'g'lovchi "vov" ma'nosida bo'lib, كل ga bog'lanyapti, deydi. Basraliklar bu fikrlarni rad qilib "vov" jamlovchi, istisno esa ikkinchi narsani birinchining ma'nosidan chiqarish, deydi. Sibavayh ham *إلا*ni sifat ma'nosida ekanini bildirib, كل ga moslashib e'robdan ergashayapti, deydi¹. Lekin Abdurahmon Jomiy bu holatni zaif deb biladi². Ko'riladiki, Xorazmiy baxsli masalalarda basraliklar fikrini inobatga olgan. Bu mavzu muhimligidan va bahsli bo'lganligidan avval oyat bilan, keyin she'riy bayt bilan qoida dalillangan va tushuntirilgan. Chunki bir qoidaning o'zidan boshqa ma'noda kelishini bilish muhim bo'lib, boshqa ma'nosini bilmagan o'quvchi matnni noto'g'ri tushinishi yoki umuman tushunmasligi mumkin. Shuni inobatga olib, olim o'sha davr muhitidan kelib chiqib, kitobni turli xil usullardan foydalanib yozgan. Klassik nahvshunoslar o'z nahv kitoblarida qoidalarni dalillashda hadisi sharifdan foydalanmaganlar. Xorazmiy esa hadisi sharifdan ko'plab o'rinlarda foydalangan kamyop nahvshunoslardan hisoblanadi. Buning isboti o'laroq, mazkur mavzuni hadisi sharif bilan ham tushuntirgan. Quyida mazkur hadis keltiriladi: *الناس كلهم موتى إلا العالمون* "Olimlardan boshqa barcha insonlar o'likdirlar"³. Bu hadisda ham o'sha qoida takrorlanib, *إلا* istisno yuklamasi *غير* harfi ma'nosida *العالمون* so'ziga sifat bo'lib kelyapti. Sakkokiy ham *إلا* istisno yuklamasi *غير* harfi ma'nosida kelishini ta'kidlaydi. Lekin Xorazmiy kabi uni sifat ma'nosida keladi, deb urg'u bermagan. Jumladan, Sakkokiy shunday deydi: *أعلم أن إلا قد تستعمل بمعنى غير. فتستحق إذ ذاك إعراب المتنوع مع امتناعها عنه، يعطى ما بعدها* – "Bilginki *إلا* istisno yuklamasi *غير* ma'nosida keladi. Bu kabi o'rinlarda ergashib kelayotgan so'zning e'robi o'zidan man qilinayotgan so'z bilan bir xil bo'ladi"⁴. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarida barcha qoidalar ko'pchilik ulamolarning fikriga yaqin bo'lib, eng asosli, muvofiqlashtirilgan ma'lumotlar keltirilgan.

¹ عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. - القاهرة ، مطبعة 1,268-betda. الجزء الأول. صفحة 424. 1961. السعادة.

² Abdurahmon Jomiy. Sharhi Mulla Jomiy, Al-Kofiya. - T.:Sharq, 2014. Abdurahmon Jomiy, 141-b.

³ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 68-b.

⁴ الإمام أبو يعقوب يوسف بن أبي بكر بن محمد المعروف بالسكاكي، علق على الكتاب نعيم زرزور، دار الكتب العلمية، بيروت. 104-betda. لبنان، 1987م، ص 621.



Kitobda mavzuning asosiy jihati bo'lgan **إلا** istisno yuklamasi haqida juda ko'p ma'lumotlar berilgan va tahlil qilinganligini ko'rdik. Uning o'xshashlari ham bo'lib, olim ularning sakkizta ekanini sanab o'tadi. Ular quydagilar: **لا يكون** "bo'lmaydi", ليس "emas, yo'q" **عدا و خلا و حاشا و سوى** "dan boshqa" ma'nolaridagi to'rtta istisno yuklamasi va لا سيما "ayniqsa" ma'nosidagi ismdan iborat.

لا يكون "bo'lmaydi", ليس "emas, yo'q" **عدا و خلا** "dan boshqa" ma'nosidagi istisnolardan keyingi ism abadiy tushum kelishigida bo'ladi. Masalan: أتاني الناس عدا زيدا، و خلا زيدا – *Mening oldimga Zayddan boshqa va Zayddan tashqari odamlar keldi*¹. Bu jumlada **عدا** va **خلا** istisnodan keyingi **زيدا** Zayd so'zi tushum kelishigida kelgan. Bunga qo'shimcha ravishda **عدا و خلا** istisnolaridan keyingi ism ham tushum kelishigida keladi. **عدا و خلا** **جاءوني ما خلا زيدا و ما عدا زيدا** – *Menga Zayddan boshqa va Zayddan tashqarilar keldilar*. Xorazmiy bu ikkita istisno yuklamasidan keyin kelgan istisnolikni ifoda qiladigan ismning tushum kelishigida kelishini shoir Labidning "tavil" vaznida yozilgan quyidagi she'rini keltiradi.

ألا كل شيء ما خلا الله باطل
وكل نعيم لا محالة زائل
سوى جنة الفردوس أن نعيمها
يدوم و أن الموت لا شك نازل

*Allohdan boshqa har bir narsa botil emasmi
Har bir huzur-halovat shak-shubhasiz o'tkinchi emasmi
Firdavs jannatidan boshqa darhaqiqat uning lazatlari davom etadi
Ammo o'lim beshak keluvchidir*².

Bu she'riy baytda **عدا و خلا** istisno yuklamasidan keyingi **الله** lafzi tushum kelishigida zikr qilingan.

Istisno mavzusining oxirgi fasli **عدا و سوى** yuklamalari bilan tugaydi. Xorazmiy bu ikki istisno yuklamasidan keyin ism **غير** kabi qaratqich kelishigida keladi. Masalan: هلك **جأوني سوى زيد** – *Mening oldimga Zayddan boshqalar keldi*. Bu ikkita jumlada ham **عدا و سوى** yuklamalari izofiy birikma hosil qilib undan keyingi ism qaratqich kelishigida kelyapti. Olim **عدا** dan keyin ba'zilar tushum kelishigida o'qishini ta'kidlaydi. Ammo kimlar qaysi qoidaga va dalilga suyanib bunday o'qishini zikr qilmagan. Bu olimning yana bir o'ziga xos uslubi bo'lib, keltirilgan qoidalar o'rganuvchilar uchun kifoya qilishini va yana nazariy bilimlarini

¹ Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 69-a.

² Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 10518-raqamli qo'lyozma. 70-a.



oshirmoqchi bo'lgan toliblar uchun mazkur bilimlarni zikr qilmasdan uni ochiq qoldirgan.

Zamaxshariy bu ikki istisnoni istisno yuklamalarining uchinchi turiga kiritib, abadiy qaratqich kelishigida kelishini bayon qiladi. Shu bilan birga nahvshunos Al-Mubarrad حاشا dan keyin tushum kelishigida o'qishga ruxsat berganligini keltirib o'tadi.¹ iy o'zining harflarga bag'ishlangan kitobida حاشا uch xil ma'noda kelishini ta'kidlaydi. 1. Sibavayh va ko'pchilik Basra nahvshunoslari uni ismni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladigan old ko'makchi ekanligini ta'kidlaydilar. Sibavayh undan keyingi ismni tushum kelishigida o'qishga ruxsat bermagan. 2. Jumiy Mubarrad, Maziniy, Zajjolar harf ma'nosida kelib, ismni qaratqich kelishigida va عدا و خلا ma'nosida fe'l bo'lib, undan keyingi ism tushum kelishigida o'qiladi, deydi. Bunga misol ham keltiradi.

3. حاشى shaklida bo'lib, fe'l ma'nosida uning egasi tushirib qoldiriladi. Agar qaratqich kelishigida kelgan bo'lsa, "lam" harfi farazan ta'sir qilgan bo'ladi. Bu farazni Farro mazhabi ilgari suradi. Murodiy bu qarashlarni keltirib, حاشا dan keyingi ismning qaratqich kelishigida kelishi eng ko'p zikr qilingan va eng oxirgi qarash hisoblanishini bayon qiladi². Misollardan ko'riladiki, olimning حاشا dan keyingi ism qaratqich kelishigida kelishi haqidagi fikri eng tog'ri va saralangan xulosadir.

لا سيما "ayniqsa" ma'nosidagi istisnodan keyingi ism bosh va tushum kelishigida kelishi joiz. Masalan; لا سيما زيد و لا سيما زيد: *Ayniqsa Zayd*. Bunda زيد so'zini ham bosh, ham qaratqich kelishigida o'qish mumkin bo'ladi.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, nasb holati tilshunoslikda alohida grammatik hodisa sifatida fe'lga bo'lgan tobelik munosabatlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Nasb holatidagi so'zlar, odatda, to'ldiruvchi sifatida qatnashib, fe'l bildirgan ish-harakat, holat yoki jarayonning kim yoki nimaga taalluqli ekanini ko'rsatadi. Bunda mazkur holat orqali ism va fe'l o'rtasida ma'no jihatidan mustahkam bog'liqlik yuzaga keladi. Bu bog'liqlik faqat vositasiz to'ldiruvchilar orqali emas, balki turli darajadagi semantik munosabatlarni – masalan, harakatning yo'nalishi, ta'siri, sababi yoki maqsadini ifodalovchi vositalar orqali ham yuzaga keladi.

Nasb holati o'z mohiyati bilan fe'lni yanada to'ldiradi, aniqlashtiradi, kengaytiradi va shu orqali gapning semantik tuzilishini mukammallashtiradi. Bu holat boshqa tillarda, ayniqsa, hind-yevropa tillarida, ko'pincha ravishlar yoki predikativ ifodalar orqali yuzaga chiqsa, arab tilida bu funktsiya grammatik holat – ya'ni nasb orqali rasmiylashtiriladi. Shunday ekan, nasb holatini nafaqat tushum kelishigi deb, balki uni fe'lga tobelikni

¹ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 565 87-betda.

² أبو محمد بدر الدين حسن بن قاسم بن عبدالله بن علي المرادي المصري، الجنى الدانى فى حروف المعانى، تحقيق فخر الدين 564-betda. قباوه، دار الكتب العلمية بيروت، 1992م، ص684.



bildiruvchi umumiy grammatik kategoriya sifatida – ya’ni shartli ravishda “fe’l kelishigi” deb ham atash mumkin.

Bu holat arab tilining sintaktik tizimidagi ismlarning fe’lga nisbatan mustahkam grammatik va semantik bog’liqligini ko’rsatadi. Nasb holatidagi birliklar gap tuzilmasida o’z o’rniga ega bo’lib, ular gapni grammatik jihatdan barqaror va ma’noli qiladi. Shuningdek, bu holat tilshunoslik tadqiqotlarida grammatik holatlar tizimini chuqurroq o’rganish, so’zlar o’rtasidagi sintaktik bog’lanishlarni tahlil qilishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ilmiy tadqiq qilinyotgan maqolada aniqlovchi, to’ldiruvchi va holdan tashqari ikkinchi darajali bo’laklar, ya’ni qo’shilmalar keldiki, ular boshqa tillarda uchramaydi. Bu التميز “cheklov”, deb ataladi. Gap bo’laklaridan bo’lgan tamyiz arab tiligagina xos bo’lib, juda sermahsul mavzu hisoblanadi. O’zbek tilidagi ba’zi manbalarda bu termin “cheklov” ba’zilarida esa “cheklash” yoki “aniqlashtiruvchi” deb beriladi. Bu mavzu ham mazkur maqolada asardagi ma’lumotlar asosida o’rganildi. Shu narsa ayon bo’ldiki, boshqa tushum kelishigidagi ismlar fe’ldan keyin yoki egadan keyin kelsa, “cheklov” tugallangan gapdan keyin kelarkan. Shuningdek, biror qoida asosida qaysidir otga moslashish shartiga ega emas.

Makkiy Xorazmiy qoidalarni dalillashda avval oddiy ibora va jumalardan keyin Qur’oni karim oyatlaridan foydalangan. She’riy baytlardan ham o’rni bilan foydalanib, Qur’oni karim oyatlaridagi uslubga ma’noga yaqinroq she’riy baytlarni berishga harakat qilgan. Xalq og’zaki ijodidan ham foydalanib, ko’plab maqol va matallar keltirgan. Hadisi shariflardan kam foydalangan bo’lsa ham, boshqa nahvshunoslarga nisbatan ko’p ishlatgan.

ARAB MAQOL-MATALLARIDA FE’LLAR LINGVOMADANIY OMIL SIFATIDA

ABROR DINIQULOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya: *Har qanday tilni o’rganish o’z o’rnida o’sha xalq madaniyatini o’rganishni talab qiladi. Maqol-matallar esa ayni shu madaniyatni namoyon qiluvchi ko’zgu sanaladi. Unda xalqnig uzoq tarixga borib taqaladigan o’zligi, o’y-xayollari jamul jam bo’ladi. Bu maqola arab madaniyatining odatlarini, turmush tarzini fe’llar qanchalik aks ettirishini o’rganib chiqadi. Holat va emotsional fe’llar qay shaklda namoyon bo’lishi ham tadqiq qilib o’rganildi.*

Kalit so’zlar: *Maqol, matal, lingvomadaniyat, fe’l, leksik-metaforik, istiora.*

Аннотация: *Изучение любого языка неизбежно требует освоения культуры соответствующего народа. Пословицы и поговорки являются зеркалом этой культуры. В них воплощаются самобытность народа, его мышление и*